

пособие для студ. высш. учеб, заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2007. - С.130.

8. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. - М.: Едиториал УРСС, 2004. - С.259.

9. Галицких Е.О. Диалог в образовании как способ становления толерантности: учебно-методическое пособие. - М.: Академический Проект, 2004. - С.34.

10. Акулова О.В. Изменение целей педагогической деятельности: контекст связи образования и качества жизни человека // Человек и образование, 2006. - №6. - С.28.

11. Мурашов А.А. Педагогическая риторика. - М.: Педагогическое общество России, 2001. - С.96.

12. Любичева Е.В. Посредством Слова творю я мир... Книга первая. О культуре Слова, о тайнах Звука и загадках Буквы. 5 класс. Пособие по русскому языку для учителей-словесников. - СПб.: ООО «Издательство ДНК», 2002. - С.7.

13. Колесникова И.А. Педагогическое проектирование: учеб, пособие для высш. учеб, заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2007а. - С.26-27.

14. Вербицкий А.А. Контекстное обучение и становление новой образовательной парадигмы. - Жуковский: МИМ ЛИНК, 2000. - С.31.

## **XORIJIY TIL TA'LIMIDA GAZETA MATERIALLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Begmatov M.B.**

(SamDChTI professori, f.f.n.)

**Annotatsiya.** Ma`lumki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatimiz dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy hamda ijtimoiy yangiliklardan uzluksiz boxabar bo`lib turishi uchun albatta xorijiy malakatlarning ommaviy axborat vositalarida berilib boradigan axborotlarni olib turishi taroqqiyotda ham muhim o`rin tutadi. Mazkur maqolada esa mashg`ulotlarda gazeta maqolalaridan foydalanishning ba`zi xususiyatlarini yoritishga urinamiz.

**Kalit so`zlar:** matn, leksik va grammatik qiyinchliklar, lingvistik xususiyat, gazeta materiallari, o`qituvchi izohlari.

**Annotation.** It is known that in order for our rapidly developing country to be continuously aware of the economic and social news happening in the world, it is important for the development of foreign countries to receive the information given

in the mass media. In this article, we will try to highlight some features of using newspaper articles in training.

**Key words:** text, lexical and grammatical difficulties, linguistic features, newspaper materials, teacher's comments.

**Аннотация.** Известно, что для того, чтобы наша стремительно развивающаяся страна была постоянно в курсе экономических и социальных новостей, происходящих в мире, для развития зарубежных стран важно получать информацию, подаваемую в средствах массовой информации. В этой статье мы попытаемся осветить некоторые особенности использования газетных статей в обучении.

**Ключевые слова:** текст, лексико-грамматические трудности, языковые особенности, газетные материалы, комментарии преподавателя.

Hozirgi globallashuv davrida mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga ildam qadamlar bilan kirib borar ekan, talaba va professor-o'qituvchilarda jahondagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan muntazam xabardor bo'lib borish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu holat oliy ta'lim muasasalarida xorij ommaviy axborot vositalarida chop etilgan gazetalarni ham o'qitish lozimligini ko'rsatadi. Shunday ekan, xorijiy tilni o'rganayotgan talabalar o'sha tildagi matbuot materiallari yoritgan voqealarni tushuna olish va talqin etishi shart. Biz pedagoglarning burchi ularga gazetalalar bilan ishlashning asosiy uslublarini singdirishdir. Xorijiy til bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda gazetalarni o'qish jarayonini birinchi navbatda original matnlarida yuzaga keladigan leksik-grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan boshlash kerak. Matnni to'g'ri tushunish muayyan mamlakatdagi siyosiy ahvoldan yoki millatga xos bo'lgan so'zlar (realiya)dan bexabarlik matnni tushunishga to'siq bo'lishi mumkin. Bu holda o'qituvchi izohlari muhim ahamiyat kasb etadi [5; 45-b].

Ta'kidlash joizki, gazeta matnlarini o'rganishning asosiy sharti berilgan matnni ovoz chiqarmasdan o'qishdir. Ovoz chiqarib o'qishdan tilning grafik tizimini o'rgatishdagina foydalanish tavsiya etiladi. Biroq bu orqali ovoz chiqarib o'qishdan butunlay voz kechish kerak degani emas. Birinchi bosqichda ba'zan matnni tarjimasiz tushinish malakalarni rivojlantirish lozim. Ayni shu malakalar talabalarning fikrini matnning mazmunida jamlash va undan ma'lumot olishga yo'l ochadi.

Xorijiy tilni o'qitish jarayonining boshida talabalarga murakkab bo'lmagan xorijiy tildagi gazeta matnlarini tanlab so'zlarni bilmasdan ham tushina olish mumkin, degan ishonch hosil qildirish kerak. Ular o'qiyotgan matnni xamma so'zlarini bilmasa-da, til taxmini vositasida notanish so'zlarga e'tibor bermasdan tushinishga harakat qiladilar. Matnni qismlarga bulish maqsadga muvofiq emas, chunki u matn kompozitsiyasini buzib, ma'lumot olishga halaqit beradi. Lekin matn juda katta hajmda bo'lsa, o'qituvchi talabalarga undagi ba'zi asosiy mazmunga putur yetkazmaydigan abzaslarni qoldirib ketishni ham tavsiya qilishi mumkin [1; 26-b.].

Bu sohada dastlabki ishlar amalga oshirilgach, matnni yana bir bor ko‘rib chiqish foydadan xoli emas, chunki bu hol mazmuni birlamchi ilg‘ashda paydo bo‘ladigan individual qiyinchiliklarni aniqlashga yordam beradi. O‘qib tushinilgan matnni tekshirish turini mashqlar bajarish orqali amalga oshirish mumkin [3; 63-b.]. Matn ustida ishlash uni talqin qilish bilan tugaydi. Bunga voqeaning ijtimoiy ahamiyati, uning, sababi va maqsadi odamlar harakatiga izoh, o‘qilgan matn xulosa va gazeta xabari to‘g‘risidagi fikrlarni kiritish mumkin.

Bu yerda bildirilgan fikr-mulohazalardan quyidagilarni gazeta matnlari ustida ishlash jarayoni bosqichlari deb ko‘rsatishimiz mumkin.

Matnni o‘qishgacha bo‘lgan bosqich: Talabalarni matn mazmunidan va ish maqsadidan xabardor qilish; Ba’zi so‘zlar, grammatik modeli yoki so‘z birikmalarini alohida ko‘rib chiqish (leksik va grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida).

Xorijiy tildagi matnni o‘qigandan so‘ngi bosqich: O‘qilgan matnni tushunganlik darajasini aniqlashda va matn mazmunini to‘liqroq o‘zlashtirishga qaratilgan mashqlarni bajarish; O‘qilgan matn asosida ijodiy xarakterga ega vazifalarni bajarish.

Shunday qilib, gazeta matnlari xamda axborot materiallari bilan ishlash borasida – 1) bayonning lo‘nda siqiq ifodalanishi-gazetaning axborot qismiga ortiqcha so‘zlarni ishlatmaslikka xarakat qilish (albatta bir-biri bilan bo‘lgan munosabatni ifodalashning yagona vositasi bo‘lgan so‘zlarni ortiqcha deb bo‘lmaydi); 2) atamalar va nomenklatura (muassasa, davlat organlari, lavozim nomlari va u yoki bu marosimlarni ifodalanishi). Tarjimon bu holda o‘z tilida ularni ishlatish an‘analariga muvofiq ish tutadi, ayni paytda original tilidagi ortiqcha atamalardan voz kechadi; 3) uzun, murakkab tarjima jarayonida noaniqlik va chalkashlik maqsadga nomunofiq bo‘lgan gaplar sintaksisida namoyon bo‘lib, ularni qismlarga bo‘lib tarjima qilish xam mumkin (gazeta matnlari uchun ilmiy matnlardan farqli ularoq bo‘lingan gaplar tabiiyroq ko‘rinadi).

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, dars xorijiy til bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarida gazeta matnlaridan foydalanishda gazeta janri va uslubi tilning boshqa uslublaridan o‘zining lingvistik, grammatik, leksik-semantik xususiyatlari bilan farqlanadi. Lingvistik xususiyatlariga ulardagi takrorlanadigan so‘z va iboralar, ya’ni gazeta qoliplarining keng ishlatilishi, hamda unda atoqli otlar, joy nomlari, muassasa nomlari, tashkilot va muassasalar ishlatilish darajasi yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Begmatov M.B Gazeta sarlavhalarining kommunikativ pragmatik funksiyalari Xorijiy til ta’limining kognitiv – pragmatik tamoyillari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Samarqand: SamDChTI, 2007. –24-25 b.

2. Горина Е.В. Газета в аспекте речевого воздействия на личность. – автореф. дисс. канд. филол. наук. –Екатеринбург, 2004. –20 с.

3. Коробова Л.А. Из наблюдений над некоторыми номинативными структурами заголовков газеты В кн: Иностранная филология, Республиканский сборник, Каз. гос. ун.-т им. С.М.Кирова. –Алма-Ата, 1975 вып. 5. –С. 60-67.

4. Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. МГУ, –М., 1979. – 290 с.

5. Розенталь Д.Э. Актуальные вопросы изучения языка газеты – Вести. МГУ, сер. Журналистика, 1975, № I. –С. 44-48.

## **ФРАЗЕМАЛАРДЫҢ СТИЛЬЛИК ХЫЗМЕТИ (И.Юсупов шығармалары тийкарында)**

**Гулжахан Алламбергенова –**  
Қарақалпақ мәмлекетлик университети,  
доценти филология илимлери бойынша  
философия докторы (PhD)

**Аннотация:** *Фразеологизмлер* – қарақалпақ тилинің сеслик, сөзлик, мәнилик, тарихый өзгешеликлеринің бәрін өзінде жәмлеген турақлы сөз дизбеклери болып есапланады. Көркем шығармалар тилиндеги стильлик тил байлықтарының басым көпшилиги халық дәретпелери тилинде пайда болады, қәлиплести хәм жазба көркем әдебиат тилинің көркем сүүретлеу қуралларын, байлықтарын жетилистириуға хәм байытыуға себепши болғанлығы белгили. Биз бул мақаламызда шайыр И.Юсупов поэзиясында фраземалардың окказионал стильлик хызметлерине тоқтаймыз.

**Таяныш сөзлер:** *лексика, фразеологизм, термин, сөзлик қурам, көркем текст, семантика, турақлы сөз дизбеклери, стилистика*

**Аннотация:** Фразеологизмы-это устойчивое сочетание слов, которое выражает целостное значение в каракалпакском языке. Смысл которое не определяется значением. Большинство стиль литературных произведений образовалось в народных произведениях и обоготал предметы письменных художественно литературных произведений. Мы остановимся в этом выпуске окказионально стильные службы фраземы в поэзии И.Юсупова.

**Ключевые слова:** лексика, фразеологизм, термин, состав слова, художественный текст, семантика, стилистика и неизменяемые словосочетание

**Abstract:** Phraseologisms are stable word combinations that contain the phonetic, lexical, semantic, and historical peculiarities of the Karakalpak language. In the language of works of art, most of the stylistic language findings occur in the language of folklore and it is clear that language of folklore has contributed to